MANZURAXON
BALTABAEVA

# O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY VA SIYOSIY JARAYONLARNING YANGI BOSQICHIDA XOTIN-QIZLAR ISHTIROKI

**76.01ya73**
**070(075.8)(072)**
**M 54**

Toshkent – 2026

Ijod nashr

**M 54** **Baltabayeva, Manzuraxon.** O‘zbekiston xotin-qizlarining davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki [Matn]: uslubiy qo‘llanma / Manzuraxon Baltabayeva, – Toshkent: "Ijod Nashr" nashriyoti. 2026. – 192 b.

**ISBN 978-9910-5053-9-3**

Mas’ul muharrir
**Ahmadjon Xoliqulov,**
*Tarix fanlari doktori, professor*

Taqrizchilar:
**Xurshida Yunusova,**
*Tarix fanlari doktori, professor*

**Dilorom Bobojonova,**
*Tarix fanlari doktori, professor*

*Mazkur monografiyada O‘zbekiston islohotlarning yangi davrida mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida O‘zbekistonni barqaror rivojlantirishning milliy maqsadlari va gender strategiyasi doirasida xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini oshishi bilan bog‘liq natijalar ilmiy tahlil etilgan. Ushbu monografiyadan O‘zbekiston xotin-qizlarining davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiy islohotlardagi ishtiroki masalalari bilan qiziquvchilar, tadqiqotchilar, tarix fakulteti bakalavr va magistrantlari foydalanishlari mumkin.*

*Monografiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashning 2026-yil 20-maydagi 11-sonli majlisi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

**ISBN 978-9910-5053-9-3**

© Manzuraxon BALTABAYEVA 2026
© “Ijod Nashr”, 2026

# SO‘ZBOSHI

Bugungi kunda jahon davlatlarida xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan haq-huquqlarining ta’minlanishiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Xususan, jamiyat hayotining barcha sohalarida – siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fanda xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlari tengligiga erishish dolzarb masalaga aylangan. Xotin-qizlar dunyo aholisining qariyb yarmini tashkil etadi, ammo ularning kichik qismigina munosib ish bilan ta’minlangan va ijtimoiy faol hisoblanadi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida ayollarning erkaklar bilan bir qatorda to‘liq va teng ishtirokini ta’minlanishi taraqqiyotning asosi hisoblanadi.

Dunyoda xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish masalalari qator ilmiy markazlar, xalqaro tadqiqot institutlari izlanishlari hisobiga boyib bordi. Jumladan, Shimoliy Amerika, Angliya, Germaniya, Fransiya, Shvesiya, Janubiy Koreya, Avstraliya va Rossiyada xotin-qizlar muammolariga doir tadqiqotlarda ularning siyosiy jarayonlarda to‘laqonli ishtirokini ta’minlashga qaratilgan masalalar – xotin-qizlarning siyosiy maqomi, yetakchilik qobiliyatini oshirish bo‘yicha ilmiy-nazariy va ijtimoiy-falsafiy qarashlar rivojlantirilgan. Germaniyaning F. Ebert nomidagi jamg‘armasi, Janubiy Koreya Ixtirochi ayollari assotsiatsiyasi, Fransiya feminizm harakatchilari tomonidan xotin-qizlarning huquqlari va gender tengligiga oid sotsiologik, psixologik, psixoanalitik konsepsiyalar ilgari surilgan. Shu jumladan, ayollar masalasiga global muammo sifatida qarash borasida Birlashgan Millatlar Tashki-

loti tomonidan ayollar hayoti va huquqiga taalluqli konvesiyalar, deklaratsiyalar, xalqaro bitimlar ishlab chiqilgan. Bular dunyoda xotin-qizlarga bo'lgan e'tibor borasida yangicha yondashuv va tafakkur rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatib keldi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning xotin-qizlarga oid davlat siyosatida ayollarga nisbatan munosabatning tubdan o'zgartirish, haq-huquqlarini himoyalash, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlash, tadbirkorlik borasidagi intilishlarini rag'batlantirish, oiladagi mavqeini oshirish, ayollar salomatligini muhofazalash va ularga nisbatan har qanday zo'ravonliklarning oldini olish borasidagi islohotlar diqqatga sazovordir. Bu borada O'zbekiston 1992 yildan BMT va Xalqaro Mehnat Tashkilotining xotin-qizlar masalalari bo'yicha huquqiy hujjatlariga qo'shilganligiga ahamiyat qaratish zarur[1]. Ta'kidlash joizki, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, davlat va jamiyat hayotiga oid muhim qarorlar qabul qilishdagi ishtirokida gender tengligini ta'minlash, ularning innovatsion biznes g'oyalari uchun keng imkoniyatlar yaratish, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlari doirasida xalqaro miqyosdagi faoliyat geografiyasini yanada kengaytirish, Markaziy Osiyo tadbirkor ayollari bilan integratsiyalashuv jarayonlarida faollashuviga ko'maklashish, yangi eksport strategiyasini amalga oshirishdagi

[1]Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг аёлларга оид масалаларда "Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси (1948 йил декабрь)", "Аёлларни камситишнинг барча шаклларини бартараф этиш тўғрисидаги конвенция" (1979 йил декабрь), "Ҳаракатнинг Пекин платформаси" (1995 йил сентябрь), "БМТ Бош Ассамблеясининг XXI асрда эркаклар ва аёллар тенглиги ҳақидаги якуний ҳужжатлари (2000 йил, июнь), "Мингйиллик ривожланиш декларацияси ва мақсадлари"(2000 йил, сентябрь), Барқарор ривожланиш мақсадлари (2015) ва Халқаро меҳнат ташкилотининг – "Оналикни муҳофаза қилиш тўғрисида"ги, "Меҳнат ва машғулотлар соҳасидаги камситишлар тўғрисидаги конвенция"лари каби қатор халқаро ҳужжатлар мавжуд.

ishtirokini va yengil sanoat tizimidagi yetakchilik faoliyatlarini kengaytirish, mehnat migratsiyasidagi himoyasini qonuniy mustahkamlash, ilm fandagi rolini oshirish eng muhim vazifalardir.

BMT Bosh Assambleyasining 2015 yil 25 sentyabrdagi "2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari" haqidagi 70-sonli rezolyusiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekistonni har tomonlama rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish" va "Erkaklar va ayollarning teng huquqlari va imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida" gi qonunlari, Oliy Majlis Senatining 2021 yil 28 maydagi "2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi to'g'risida"gi SQ-682-IV-son qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son va 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmonlarida hamda sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

# I BOB.

# YANGI O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING NAZARIY MASALALARI

**I.1. O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning yangi bosqichida xotin-qizlar ishtirokining manbashunosligi va tarixshunosligi.**

Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini tadqiq etishda manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili muhim bo‘lib, u muammoning evolyutsiyasini xolis baholash, huquqiy asoslarni taqqoslash hamda stereotiplarni ilmiy asosda tahlil etish imkoniyatini beradi. Bu tahlilsiz xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi faolligini oshirishga qaratilgan zamonaviy islohotlarning asl ko‘lami va tarixiy ildizlarini to‘g‘ri anglab bo‘lmaydi.

Mavzuning tarixshunosligi tahlili natijasida o‘zbek davlatchiligi tarixida xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini qadimgi davrdan bugungi kungacha davriy nuqtai nazardan o‘rganish, o‘zbek xalqining yaqin tarixi, xususan chor istibdodi, sobiq ittifoqning xotin-qizlar masalasidagi siyosatining oqibatlari yoki Mustaqillikning dastlabki yillaridagi davlat siyosatida ayollarning haq-huquqlarini ta’minlash hamda ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan islohotlarning yutuq-kamchiliklari sarhisob qilinib, bugungi “Yangi O‘zbekiston modeli” ning o‘ziga xosligi va avvalgi davrlardan farqli jihatlari ilmiy isbotlanadi. Yangi qonunlar, Konstitutsiyaviy normalar, Prezident farmonlari va Strategiyalarning ijrosini o‘rganishda birlamchi huquqiy manbalar tahlili O‘zbekistondagi gender tenglik siyosatining mohiyatini faktik real ma’lumotlar asosida ochib berishga xizmat qiladi.

Manbashunoslik va tarixshunoslik manbalari (arxiv hujjatlari, statistik ma’lumotlar, matbuot materiallari) jamiyatda ayollarga nisbatan mavjud bo‘l-

gan stereotiplar va ularning davlat boshqaruviga kirib borishidagi to‘siqlarning tarixiy ildizlarini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqotning manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili — bugungi kunda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o‘rnini oshirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlarning tarixiy zaruratini ochib beruvchi poydevor hisoblanadi. Manbalar turlicha, ular xilma-xil va hammasida ham mavzuga tegishli ma’lumotlar aniq hamda to‘laqonli bo‘lmasligi mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda manbalardagi ma’lumotlar bir-birini to‘ldiradi, ularni sinchiklab o‘rganilishi esa manbalarni bir-biri bilan taqqoslash orqali tadqiqot mavzusini chuqur va har tomonlama tahlil etish orqali umumiy xulosalar hosil qilishga yordam beradi. Manbalarga tayangan holda tadqiqot ishida ilmiy mavzuga oid tahliliy xulosalarni isbotlash imkoniyatining yuzaga kelishi tadqiqotning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta’minlaydi.

O‘zbekistondagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning yangi bosqichida xotin-qizlarning ishtirokini tadqiq qilishda mavzuga tegishli ilmiy tadqiqotlarning bibliografik sharhi mustaqillik yillaridan to bugungi kungacha MDH davlatlari va xorijiy olimlarning “ayollar masalasi”ga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilganligini ko‘rsatdi. Mahalliy tarixchi olimlar tomonidan ham ayollar masalasida turli yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilgan. Ammo, O‘zbekistondagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning yangi bosqichida xotin-qizlarning ishtirokiga oid tarixiy aspektda tadqiqot olib borilmagan. Shuning uchun ham tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi manbalardan foydalanildi va ular ilmiy tahlilga tortildi.

MANZURAXON BALTABAEVA

# O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY VA SIYOSIY JARAYONLARNING YANGI BOSQICHIDA **XOTIN-QIZLAR** ISHTIROKI


Noshir **Ahmad To‘ra**
Bosh muharrir **Ulug‘bek Xalilov**
Muharrir **Ahror Abdumannon**
Dizayner **MYDesigner**
Texnik muharrir **Ravshan Ochilov**
Sahifalovchi **Gulsanam Eshqulova**

**“IJOD NASHR”**
Nashriyot litsenziyasi **AA № 0050**
Berilgan vaqti 15.06.2020
100097. Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Katta Navbahor MFY, Bunyodkor ko‘chasi, 44-A uy

Bosishga 2026-yil 28-aprelda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$. Ofset bosma.
“Corbel” garniturasi.
Nashriyot bosma tabog‘i 9,5
Adadi 100 nusxa.

ijod nashr

Bog‘lanish uchun:
+99897 765-56-86

**“Ijod Studio”** MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Katta Navbahor MFY, Bunyodkor ko‘chasi, 44-A uy